



TARIXGA OID TERMINLAR VA ULARNING YASALISHI

Abduqahhorova X.A.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Tayanch soʻzlar: tarixga oid terminlar, terminosistema, affiksatsiya usuli, ichki va tashqi manba, o'zlashma terminlar, fors- tojikcha soʻzlar.

Ключевые слова: исторические термины, терминология, способ аффиксации, внутренние и внешние источники, заимствованные термины, персидско-таджикские слова.

Key words: historical terms, terminology, method of affixation, internal and external sources, borrowed terms, Persian-Tajik words.

Bugungi kunda terminosistemaning tizimli shakllanishida terminografik tadqiqotlar katta ahamiyat kasb etmoqda. Tilning terminologik tizimlarini, shuningdek, tilning umumiy boyligini koʻrsatib beruvchi izohli lugʻatlar har qanday tilshunoslik uchun bu boradagi eng yirik amaliy tadqiqotlar sanaladi.

Oʻzbek tili XX asrning 2-yarmida, xususan, keyingi oʻn yilida yangi-yangi soʻzlar, soʻz shakllari va ifoda vositalari bilan boyidi, shu bilan birga, sifat jihatidan ham ancha oʻzgardi. Unda yangi meʼyor (norma)lar, yangi xususiyatlar shakllandi va rivojlanib bormoqda. Bunday oʻzgarishlar tilning fonetik tarkibi va alifbosida ham, imlo va talaffuzida ham, morfologik va leksik-semantik tuzilmasida ham, stilistikasi va grammatik qurilishida ham ozmi-koʻpmi oʻz aksini topdi. Ayniqsa, oʻzbek tili leksikasida katga oʻzgarishlar sodir boʻldi. Oʻzbekistonda sanoat, qishloq xoʻjaligi, fan, texnika va madaniyatning beqiyos taraqqiyoti, mamlakatimizda yangi iqtisodiy islohotlar hamda bozor munosabatlarining rivojlanishi bilan bogʻliq holda oʻzbek tili lugʻat tarkibida juda koʻp yangi soʻz va terminlar yuzaga keldi. Koʻpgina soʻzlarning maʼnosi oʻzgardi, kengaydi, ayrim soʻzlarning maʼnosi yanada aniqlashdi, oʻzaro farqlandi. Bularning deyarli barchasi besh jildli lugʻatda oʻz ifodasini topgan.

Lugʻatning birlamchi vazifasi hozirgi oʻzbek adabiy tilining leksik boyligini toʻplash va tavsiflash boʻlibgina qolmay, uning meʼyorlarini belgilash va



barqarorlashtirishdan ham iborat. Bir paytning o'zida u nutq madaniyatining yuksalishiga ham xizmat qiladi.

Yuqorida aytilganidek, o'zbek tilining izohli lug'ati – me'yoriy lug'at. "Uning me'yoriyligi shundan iboratki, lug'atda adabiy tilning imlo, talaffuz, so'z yasash va uni ishlatish me'yorlari tavsiya etiladi. Buning uchun so'zlar lug'atga, o'zlarining umummilliy adabiy tilga munosabati, unda tutgan o'rni va qo'llanish doirasiga ko'ra tanlab kiritilgan. Lug'atda har bir so'zning maqbul yozilish shakli, (o'zlashma so'zlarning) kelib chiqishi – etimologiyasi, zarur hollarda, talaffuzi ko'rsatilgan, ma'nosi (yoki ma'nolari) aniqlangan va izohlangan, so'zlarning aniqlangan ma'nolari va shu ma'nolarda to'g'ri qo'llanishi o'zbek badiiy va ilmiy adabiyotidan, matbuotdan olingan misollar – iqtiboslar bilan dalillangan".

O'zbek tilshunosligida bu masalada salmoqli yutuqlar qo'lga kiritilgan. Jahon tilshunosligida terminologiya va leksikografiya, xususan, terminografiya bo'yicha, umumiy filologik hamda sohaviy lug'atlarning ahamiyati, ularni tuzish, terminologik birliklarning soha bo'yicha o'ziga xos jihatlarni ajratib ko'rsatish, shuningdek, ularni umumiy filologik yoki maxsus lug'atlarda keltirish, birliklarni izohlash bo'yicha salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan, qator yutuqlar qo'lga kiritilgan. Milliy tilshunosligimizda ham lug'atchilikka e'tibor tilshunoslikning eng muhim tarmog'i sifatida Mahmud Koshg'ariy davridanoq boshlangan.

Terminlar bilan bog'liq barcha tadqiqot ishlarida terminlarning yasalishi masalasiga alohida to'xtalib o'tilgan. Ko'pgina izohli lug'atlarda tarixga oid bo'lgan terminlarda yasama terminlar salmoqli o'rin egallaydi. O'zbek tilidagi ko'p so'zlar ichki manbalar asosida boyib boradi. Eng ko'lamlisi affiksatsiya usuli orqali boyishidir. Bu borada quyidagicha fikrlar keltirilgan.

Affikslarning terminologiyadagi imkoniyati va ahamiyati adabiy tildagiga qaraganda kengroq, chunki ular faqat termin va uning elementlarini vujudga keltirishda (yasashda) ishtirok etib qolmay, ularni sistemaga solishda ham muhim rol o'ynaydi. Soha terminologiyasining xususiyatiga qarab shu sohalar muayyan affikslardan faol yasaliş yuzaga kelgan: -dosh affiksi botanikada faol bo'lsa, -gich, -g'ich, -kich, -qich texnik terminlogiyada unumdor sanaladi.

Fors-tojik tilidan o'zlashgan -no, -ser old qo'shimchalari sermahsul yasovchilar bo'lib, ular vositasida tilshunoslik terminlari hosil qilingan. "Tilimizda shart mayli shakli (istak gaplardagi bundan mustasno) nomustaqil kesim shaklini yasashga xizmat qiladi.

Mavjud izohli lug'atlarda tarixga oid terminlarda ham ichki imkoniyat asosida yasalişiga ko'p duch kelamiz. Eng sermahsul qo'shimchalar sifatida

-chi, -xona, -lik, -begi, -dosh, -dor, -boz, -bon va boshqa qo‘shimchalarni keltirishimiz mumkin.

- chi affiksi yordamida yasalgan tarixga oid terminlar: arizachi, bo‘nakchi, dasturxonchi, dahyakchi, kapsanchi, korxonachi, oftobachi, darakchi, xazinachi, o‘lponchi;
- xona affiksi yordamida yasalgan tarixga oid terminlar: devonxona, kanaxona, yetimxona, sarbozxona, yasovulxona, qiroatxona, salomxona, raisxona, to‘pxona, qorixona, qozixona;
- dor affiksi yordamida yasalgan tarixga oid terminlar: amlokdor, daftardor, jahondor, tang‘ador, daftardor, vazifador, jig‘ador, qutidor, quldor, mulkdor;
- boz affiksi yordamida yasalgan tarixga oid terminlar: dobilboz, dovulboz
- lik affiksi yordamida yasalgan tarixga oid terminlar: amirlik, beklik, Bobiylik, bosmachilik, zargarlik, misgarlik, konsullik, maktabdorlik, payshanbalik, ozodlik ;
- bon affiksi yordamida yasalgan tarixga oid terminlar: zindonbon, darbon, kalitbon;
- noma affiksi yordamida yasalgan tarixga oid terminlar: inoyatnoma, vasiyatnoma;
- dosh affiksi yordamida yasalgan tarixga oid terminlar: urug‘dosh;
- goh affiksi yordamida yasalgan tarixga oid terminlar: manzilgoh;
- furush affiksi yordamida yasalgan tarixga oid terminlar: xotinfurush, paxtafurush ;

Yuqoridagi qo‘shimchalarning ko‘pi fors-tojik tilidan o‘zlashganini guvohi bo‘ldik. Affiksatsiya usuli bilan yasalganda tarixga oid terminlarda ish-faoliyat, mansab, maqom, o‘rin-joy otlari, shaxs otlari, narsa-buyum otlari, faoliyat-jarayon otlari hosil bo‘lishini guvohi bo‘ldik. Masalan -chi affiksi yordamida yasalgan otlar ma’lum bir faoliyat-jarayonni ifodalaydi. xona va - goh qo‘shimchalari bilan yasalgan tarixga oid terminlar o‘rin-joy ma’nosini ifodalab keladi.

ZARGARLIK 1 Zargar hunarini egallaganlik; Qimmatbaho metallar va toshlardan bezaklar yasash. Zargarlik san’ati eng ko‘hna san’atlardan biri bo‘lib, dekorativ amaliy san’at xili sifatida keng tarqalgan. (Gazetadan). U (Usta Orif Buxoriy) ...naqqoshlik va zargarlikdan to sartaoshlikkacha nodir odam. (Oybek, “Navoiy” romani).

2 tar. Bozorda joylashgan rasta, qator; Zargarlar yashaydigan mahalla.

De’mak, tarixda zargarlar yashaydigan mahallalar bo‘lgan, shu faoliyat bilan shug‘ullanuvchi oilalar bitta joyda istiqomat qilishgan.



O‘z va o‘zlashgan qatlamga oid tarixiy terminlarning deyarli barchasida affiksatsiya usulini uchratishimiz mumkin. Albatta, tub so‘zlar ham izohli lug‘atlarda salmoqli o‘rinni egallaydi.

Adabiyotlar:

1. Akobirov, S. F. Til va terminologiya. – Toshkent: 1968.
2. Begmatov, E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent, 1995.
3. Ibrohimov, S. Farg‘ona shevalarining kasb-hunar leksikasi. – Toshkent: O‘zFA, 1959. – 456 b.
4. Kadirbekova D.X. Ingliz va o‘zbek tillarida axborot texnologiyalari terminologiyasining lingvistik xususiyatlari. Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 128 b.
5. Ne‘matov, H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. –
6. Tursunov, U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
7. Tursunov U. Muxtorov J. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: 1975. –260 b.
8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2 tomli. 1-2-tomlar. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1981.
9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. 1-5-jildlar. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006. – 680 b
10. O‘zbek tilining izohli lug‘atini tuzish uchun qo‘llanma. –Toshkent: 1965.
11. Qosimov, N. O‘zbek tili ilmiy-texnikaviy terminologiyasi masalalari (So‘z o‘zlashtirish va affiksatsiya masalalari). – Toshkent: Fan, 1985.

РЕЗЮМЕ

Maqolada mavjud izohli lug‘atlardagi tarixga oid terminlarning berilishi va terminlarning affiksatsiya usuli bilan yasalishi haqida fikr-mulohaza yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье высказывается мнение об обеспечении исторических терминов в существующих толковых словарях и образовании терминов методом аффиксации.

SUMMARY

In the article, there is an opinion about the giving of terms related to history in existing explanatory dictionaries and the formation of terms by affixation method.